Genomika va bioinformatika markaziga press-tur tashkil etildi

Bugun, 17-noyabr kuni O’zR FA Genomika va bioinformatika markazida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi.

Markaz o’simliklar, mikroorganizmlar va boshqa organizmlar genomini o’rganish bo’yicha xalqaro darajadagi zamonaviy ilmiy izlanishlar olib borish va ularni natijalarini amaliyotga tadbiq qilish bilan shug’ullanadi.

Hozirda Markaz olimlari qishloq xo’jaligi ekinlari genomining strukturasini o’rganish, xo’jalik jihatdan ahamiyatiga ega bo’lgan genlar funksiyasining bioinformatik tahlillarini o’tkazish, bug’doy, anor va uzum o’simliklari uchun gen-injenerligi va transgenom texnologiyalarini yaratish, gen va hujayra injenerligi, markerlarga asoslangan seleksiya, genom va virtual seleksiya dasturlarini ishlab chiqish va ular asosida stress omillariga (sovuqqa, qurg’oqchilikka) chidamli bo’lgan yangi, tolasi yuqori sifatli “genetik boyitilgan” hamda zararkunandalarga chidamli g’o’zaning yangi navlarini yaratish bo’yicha ishlarni amalaga oshirishmoqda.

Markaz olimlari tomonidan g’o’zani fitoxrom A1 geni uchun birinchi marotaba gen-nokaut texnologiyasi ishlab chiqilib ushbu texnologiya AQSh, Xitoy, Misr, Rossiya va Hindistonda patentlandi. Ushbu texnologiya yordamida tolasi uzun va sifatli, erta pishar, serhosil, qurg’oqchilik va sho’rxoklikka chidamli g’o’zani yangi “Porloq” navlari yaratildi. Hozirda bu navlar respublika bo’ylab keng dalalarda ekilmoqda.

Markazda in-vitro mikroklonal ko’paytirish texnologiyasi yo’lga qo’yilgan bo’lib u uzum va anorni qator navlarining ko’chatlarini ko’paytirishda ishlatilmoqda. Hozirda bu texnologiya yordamida fermerlar uchun viruslardan holi va sog’lomlashtirilgan uzum va anor ko’chatlari ko’paytirilib yetkazib berilmoqda.

Kartoshka eng ustuvor qishloq xo’jaligi ekinlaridan bo’lib u mamlakatni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir. Kartoshkani fitoxrom B genining faoliyatini gen-nokaut texnologiyasi yordamida susaytirish natijasida uning hosildorlgini 26% oshirishga erishildi. Hozirda kartoshkani yangi navlari dala sinovlaridan o’tkazilmoqda.

Press-tur davomida ommaviy axborot vositalari xodimlari Mazkaz faoliyati va bu yerda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.